XALQ DEPUTATLARI QO’SHRABOT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-22-136-7-97-K/25 Qo’shrabot tumani

Qo‘shrabot tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagiVII-24-191-7-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda Samarqand viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 01/01.2-38/3955-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Qo‘shrabot tuman Kengashining yettinchi chaqiriq, yigirma ikkinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-24-191-7-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Qo‘shrabot tuman byudjetining 2026-yilgi daromadlari 115 289,5 mln.so‘m va xarajatlari esa 115 289,5 mln.so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Qo‘shrabot tuman byudjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 874,0 mln.so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari1-ilovaga muvofiq hamda tuman byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 1 482,6 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 3-ilovaga;

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (Q.Xoliqulov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (X.Musirmanov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Jonuzoqov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Qo‘shrabot Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (S.Bo‘bakov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (Q.Xoliqulov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **SHAKARBOYEV DILSHOD DAVRONOVICH**

Xalq deputatlari Qo’shrabot tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-22-136-7-97-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Qo‘shrabot tuman mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

ming so‘mda

№	Daromad turlari	Qo‘shrabot tumani
	JAMI	**115 289 511**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	2 549 820
2	Foyda solig‘i	1 120 400
3	Aylanmadan olinadigan soliq	3 041 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	60 305 000
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	682 000
6	Aksiz solig‘i jami	5 103 000
	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	*5 103 000*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	873 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	7 217 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3 071 876
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	24 117 375
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	2 918 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 013 000
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	408 000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-163 200
13	Davlat boji	592 570
14	Yig‘imlar	329 420

15	Jarimalar	503 250
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	16 000

Xalq deputatlari Qo’shrabot tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-22-136-7-97-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Qo‘shrabot tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Qo‘shrabot tumani
Xarajatlar miqdori, jami		**115 289 511**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*41 013 913*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*5 500 200*
2	Madaniyat bo‘limi	*4 179 474*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*4 457 321*
4	Sport bo‘limi	*4 098 799*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 497 858*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*3 728 222*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*250 000*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 551 445*
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*224 073*
10	Hokimiyat	*32 328 051*
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*16 515 131*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*1 918 000*
	Zahira jamg‘armasi	*1 482 616*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*1 114 393*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*102 371*
	Axborot-kutubxona markazlari	*1 012 022*

12	Obodonlashtirish boshqarmasi	19 845 962

Xalq deputatlari Qo’shrabot tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-22-136-7-97-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	MFY nomi	Koeffitsient	Yer solig‘i stavkasi 2026 yil uchun *(so‘mda)*
1	Mayintepa MFY	0,97	34 167 280,0
2	Katta Oqmachit MFY	0,97	34 167 280,0
3	Qo‘shtamg‘ali MFY	0,97	34 167 280,0
4	Qo‘shrabot MFY	0,97	34 167 280,0
5	Qo‘rg‘on MFY	0,97	34 167 280,0
6	Quvkalla MFY	0,84	29 588 160,0
7	Qovunchi MFY	0,97	34 167 280,0
8	Qiyqim MFY	0,97	34 167 280,0
9	Qoratosh MFY	0,97	34 167 280,0
10	Buloq MFY	0,90	31 701 600,0
11	Zarkent MFY	1,24	43 677 760,0
12	Jo‘sh-ota MFY	0,97	34 167 280,0
13	Jonbuloq MFY	0,84	29 588 160,0
14	Do‘stlik MFY	0,97	34 167 280,0
15	Buloqboshi MFY	1,24	43 677 760,0
16	Boyto‘p MFY	0,97	34 167 280,0
17	Boypurishli MFY	0,84	29 588 160,0
18	Bazarjay MFY	0,97	34 167 280,0
19	Axchabsoy MFY	0,84	29 588 160,0

20	Minishkor MFY	0,84	29 588 160,0
21	Zarmitan MFY	1,24	43 677 760,0
22	Mustaqillik MFY	1,45	51 074 800,0
23	Qo‘rolos MFY	1,24	43 677 760,0
24	Namuna MFY	1,45	51 074 800,0
25	Navkat MFY	0,97	34 167 280,0
26	Yangiobod MFY	0,97	34 167 280,0
27	Yangiqishloq MFY	0,84	29 588 160,0
28	Yuqori Saroy MFY	0,97	34 167 280,0
29	Shova MFY	0,84	29 588 160,0
30	Shavana MFY	0,97	34 167 280,0
31	Chorloq MFY	0,83	29 235 920,0
32	Chinoq MFY	0,97	34 167 280,0
33	Chimmos MFY	0,97	34 167 280,0
34	Xonnazar MFY	0,97	34 167 280,0
35	Yuqori Jo‘sh MFY	0,97	34 167 280,0
36	Urganji MFY	0,97	34 167 280,0
37	O‘rtasoy MFY	0,97	34 167 280,0
38	Pangat MFY	0,84	29 588 160,0
39	Pichot MFY	1,24	43 677 760,0
40	Soxibkor MFY	0,97	34 167 280,0
41	Sarigul MFY	0,97	34 167 280,0
42	Tinchlik MFY	0,97	34 167 280,0
43	Toz MFY	0,97	34 167 280,0
44	Tegirmonovul MFY	0,97	34 167 280,0
45	Ozod MFY	0,84	29 588 160,0

Izoh: Soliq stavkalari va koeffisientlarni qo‘llash maqsadida quyidagilar inobatga olinadi.

Jumladan, Boypurishli MFY Ozod MFYga, Yangiobod MFY Qovunchi MFYga, Shova MFY Pangat MFYga, Namuna MFY Qo‘rolos MFYga, Chinoq MFY Qo‘shtamg‘ali MFYga, Yuqori Jo‘sh MFY Jo‘sh-ota MFYga, O‘rtasoy MFY Yangiqishloq MFYga, Sarigul MFY Toz MFYga, Tinchlik MFY Bozorjoy MFYga, Buloq MFY Tegirmonovul MFY tarkibiga qo‘shilgan.

Xalq deputatlari Qo’shrabot tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-22-136-7-97-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	MFY nomi	Koeffitsient	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun *(so‘mda)*
1	Mayintepa MFY	0,96	293,36
2	Katta Oqmachit MFY	0,96	293,36
3	Qo‘shtamg‘ali MFY	0,96	293,36
4	Qo‘shrabot MFY	0,96	293,36
5	Qo‘rg‘on MFY	0,96	293,36
6	Quvkalla MFY	0,83	253,63
7	Qovunchi MFY	0,96	293,36
8	Qiyqim MFY	0,96	293,36
9	Qoratosh MFY	0,96	293,36
10	Buloq MFY	0,83	253,63
11	Zarkent MFY	1,03	314,75
12	Jo‘sh-ota MFY	0,96	293,36
13	Jonbuloq MFY	0,83	253,63
14	Do‘stlik MFY	0,96	293,36
15	Buloqboshi MFY	1,03	314,75
16	Boyto‘p MFY	0,96	293,36
17	Boypurishli MFY	0,83	253,63
18	Bazarjay MFY	0,96	293,36
19	Axchabsoy MFY	0,83	253,63

20	Minishkor MFY	0,83	253,63
21	Zarmitan MFY	1,03	314,75
22	Mustaqillik MFY	1,16	354,47
23	Qo‘rolos MFY	1,03	314,75
24	Namuna MFY	1,39	424,76
25	Navkat MFY	0,96	293,36
26	Yangiobod MFY	0,96	293,36
27	Yangiqishloq MFY	0,83	253,63
28	Yuqori Saroy MFY	0,96	293,36
29	Shova MFY	0,83	253,63
30	Shavana MFY	0,96	293,36
31	Chorloq MFY	0,96	293,36
32	Chinoq MFY	0,83	253,63
33	Chimmos MFY	0,96	293,36
34	Xonnazar MFY	0,96	293,36
35	Yuqori Jo‘sh MFY	0,96	293,36
36	Urganji MFY	0,96	293,36
37	O‘rtasoy MFY	0,96	293,36
38	Pangat MFY	0,83	253,63
39	Pichot MFY	1,03	314,75
40	Soxibkor MFY	0,96	293,36
41	Sarigul MFY	0,96	293,36
42	Tinchlik MFY	0,96	293,36
43	Toz MFY	0,96	293,36
44	Tegirmonovul MFY	0,96	293,36
45	Ozod MFY	0,83	253,63

Izoh: Soliq stavkalari va koeffisientlarni qo‘llash maqsadida quyidagilar inobatga olinadi.

Jumladan, Boypurishli MFY Ozod MFYga, Yangiobod MFY Qovunchi MFYga, Shova MFY Pangat MFYga, Namuna MFY Qo‘rolos MFYga, Chinoq MFY Qo‘shtamg‘ali MFYga, Yuqori Jo‘sh MFY Jo‘sh-ota MFYga, O‘rtasoy MFY Yangiqishloq MFYga, Sarigul MFY Toz MFYga, Tinchlik MFY Bozorjoy MFYga, Buloq MFY Tegirmonovul MFY tarkibiga qo‘shilgan.